

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik

Talaba - yoshlarni o'quv jarayonlarida qishloq xo'jaligi texnikalari bilan yaqindan tanishish hamda bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash maqsadida mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar kuchaytirilmoqda.

Joriy yilning 29 yanvar kuni Amerikaning **"John Deere"** kompaniyasining O'zbekistondagi **"LANDTECH"** MCHJ qo'shma korxonasi rahbarlari va mas'ul xodimlari institutimizga taklif qilindi. Ular bilan "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti professor - o'qituvchilari hamda talaba - yoshlari o'rtasida uchrashuv tashkillatirildi. Mehmon xodimlar talabalar bilan korxonada faoliyati va unga ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha davra suhbatini o'tkazildi.

Tadbirda **"John Deere"** kompaniyasining O'zbekistondagi mas'ul vakili Nil Kensi va **"LANDTECH"** MCHJ qo'shma korxonasi rahbari Botir Isroilovlar mehmon sifatida ishtirok etib, "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti professor - o'qituvchilari hamda talaba - yoshlarini qiziqtirgan savollariga javob berib borishdi. Tadbir so'ngida institut rahbariyati va **"LANDTECH"** MCHJ qo'shma korxonasi rahbarlari o'rtasida hamkorlik memorandumini tuzilib imzolandi.



"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti Ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari I.Raximov

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov